

INGLIZ TILIDAGI IDIOMALAR VA IBORALARNING MULOQATDAGI ROLI

D.M.Isroilova

*Andijon davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari doktori,
professor*

Abdugʻaniyeva Dilnavoxon

*Andijon davlat pedagogika institute “Maktabgacha va
boshlangʻich taʼlimda xorijiy til” yoʻnalishi 2-bosqich talabasi
dilquv@gmail.com*

Email:abduganiyevadilnavo@gmail.com

Tel:+998941055364

+998910460612

Annotatsiya: Ingliz tili boy va murakkab til boʻlib, unda koʻplab idiomalar va iboralar mavjud. Idiomalar bu soʻzlarning toʻliq ifodasi orqali anglanmaydigan, maxsus maʼnoga ega boʻlgan gap birikmalari. Ingliz tilida idiomalar keng qoʻllaniladi va ular muloqotni boyitish, aniq va ifodali qilishda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada idiomalar va iboralar orqali tilning ifoda vositasi sifatida qanday ishlatilishi va muloqotdagi roli haqida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: rasmiy muloqot, norasmiy muloqot, kultural mano, idioma, qisqartmalar.

THE ROLE OF ENGLISH IDIOMS AND PHRASES IN COMMUNICATION

Andijan State Pedagogical Institut

Doctor of Pedagogical Sciences, professor D.M. Isroilova

Andijan State Pedagogical Institute,

Department of Preschool and Primary Education,

Foreign Language Major 2nd-year student

Abduganiyeva Dilnavoxon

dilquv@gmail.com

Email:abduganiyevadilnavo@gmail.com

+998 941055364

Phone: +998 910460612

Abstract: English is a rich and complex language with many idioms and phrases. Idioms are expressions with special meanings that cannot be fully understood from the literal meanings of the words. Idioms are widely used in English and play an important role in enriching communication, making it clearer and more expressive.

This article discusses how idioms and phrases function as a means of expression in language and their role in communication.

Keywords: formal communication, informal communication, cultural meaning, idiom, abbreviations.

РОЛЬ АНГЛИЙСКИХ ИДИОМ И ФРАЗ В ОБЩЕНИИ

Андижанский государственный педагогический институт, доктор

педагогических наук, профессор Д.М.Исроилова

Андижанский государственный педагогический институт,

студентка 2 курса Абдуганиева Дильнавохон

Направление «Иностранный язык в дошкольном

и начальном образовании»,

dilquv@gmail.com

Электронная почта: abduganiyevadilnavo@gmail.com

Телефон: +998941055364

+998910460612

Аннотация: Английский – богатый и сложный язык со множеством идиом и выражений. Идиомы – это фразы, имеющие особое значение, которое невозможно понять посредством полного выражения слов. Идиомы широко используются в английском языке и играют важную роль в том, чтобы сделать общение более богатым, ясным и выразительным. В этой статье обсуждается, как язык используется как средство выражения и его роль в общении посредством идиом и выражений.

Ключевые слова: формальное общение, неформальное общение, культурное значение, идиома, аббревиатуры.

Har bir tilda shunday so'zlar borki, ularni to'g'ridan to'g'ri tarjima qilib bo'lmaydi yoki grammatik qoidaga bo'ysunmaydi va aksariyat hollarda idiomaning ma'nosini anglash murakkabligicha qolaveradi. Idiomalarni tushunish uchun, avvalo, berilgan matn tarkibidagi idiomalar tarjimasi bilan tanishish, o'zbek tilidagi o'xshash jihatlari bilan solishtirish va yodlash lo'zim. Odatda bunday hollarda maqollar, yozma nutq shaklidagi so'zlashuv uslubidagi so'zlarni tushunish til o'rganuvchiga bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Ingliz tilida idio'ma (idiom) – bu, ikki yo'ki undan ortiq so'zning birikmasi bo'lib, ularning so'zma-so'z tarjimasi asl ma'nosida tafovut mavjud. Iboralar (phrases) esa so'zlar birikmasi bo'lib, u aniq bir tushuncha yoki muloqot ma'nosini anglatadi. Ikkala birikma ham ingliz tilidagi gap mazmunini ifodalaydi va madaniy jihatdan boy qiladi

shuningdek, fikrni chiroyli ifodalashda milliylik nuqtai nazardan til boyligi xususiyatini saqlab qoladi.

Tilni o'rganish jarayonida idiomalar nutqning eng murakkab qismi bo'lib, uni o'zlashtirish (multimedia learning) – multimedia yondashuviga ko'ra amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Ya'ni, tili o'rganilayotgan mamlakatning tili, madaniyati, urf-odatlar, yashash tarzi aks etgan video materiallar yordamida amalga oshiriladi.

Quyidagi misollarda biz ingliz va o'zbek tillarida taqqoslangan aniq ifodaviy til turlarini ko'rishimiz mumkin :

-Hi there! See you soon! -assalomu alaykum, sog' bo'ling yoki hayrli tong;

-At the moment, in a hurry- ayni paytda, shoshilinchda

It is a small world. Don't put all your eggs in one basket. To be or not to be. It is a question.-Musulmonchilik asta sekinlik bilan bo'ladi, oz –oz o'rganib dono bo'lur¹.

Misollardan ko'rinib turibdiki, iboralarning ishlatilishi va kelib chiqishi har bir xalqning madaniyati va so'zlashuv uslubiga bog'liq. Ularni bir tildan ikkinchi tilga aynan tarjima qilib bo'lmaydi, balki unga mos yoki ma'no jihatdan yaqin bo'lgan so'zlardan foydalanishimiz mumkin. Shu o'rinda yana bir iborani misol keltirmoqchiman:

-**Smile like Cheshir cat** – cheshir mushugidek kulmoq ya'ni ma'nosi barcha tishini ko'rsatib kulmoq, tirjaymoq bo'ladi.

O'zbek tilida esa **Kuydirgan kalladek** – iborasini qo'llashimiz joiz

-**"I put my foot in it the other day in Linda's house"** gapida qo'llanilgan **"put your foot in it"** – **"og'zidan gullamoq"** xafa qiladigan gapni tasodifan aytib qo'yishga ya'ni, qovun tushurmoq iborasiga to'g'ri keladi.

So'zlovchi o'z fikrlarini tinglovchiga quyidagi 4 usul yo'rdamida ifoda eta olishi mumkin:

1) Ta'kidlash-so'zlovchi iboradagi muhim bir nuqtani alohida ajratib ko'rsatish maqsadida qo'llaydigan uslubdir.

-**The singer's second album sank like stone**- Uning bu ishi yetti uxlab tushiga kirmagan edi iborasi bunga yaqqol misol bo'la oladi.Ushbu ibora inson tasavvuriga ham sig'maydigan darajadagi yangilik yoki voqeani takilash uchun qo'llaniladi.

2) Jalb qilish-diqqatni asosiy g'oyaga yoki muhim nuqtaga qaratish usulidir.E'tabor jalb qilish orqali so'zlovchi tinglovchini zaruriy ma'lumotga yo'naltiradi.

-**In headings: Jack is in a debt of dishonor**- Sarlavhalarda: Tosh kelsa kemirib, suv kelsa simirib xalqqa xizmat qilgan-ushbu iborada tinglovchi o'z diqqatini

¹ A.L.Yusupo'v. Inglizcha –o'zbekcha ibo'ralar lug'ati. Yangi asr avlo'di. – To'shkent. 2014.– 36 b.

xizmatkor insonning sadoqatiga qaratadi. U har qanday sharoitda-og'ir yoki yengil bo'lishidan qat'iy nazar o'z vaifasini vijdonan bajarib kelganini ulug'laydi.

3) Taqqoslash-ikki yoki undan ortiq narsalarni qiyoslash orqali ularning farqi yoki o'xshashligini ko'rsatish uslubidir.

-It is as dark as night in his room-Bir narsadan quruq qolgandek yugurib ketti-ushbu misol orqali biz insonning kechikishi natijasida nimanidir yo'qotishdan havotrlanayotganini va shoshilayotganini ifodalashimiz mumkin. Iboradagi taqqoslash insonning ichki holatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

4) Bo'rttirish-bu ma'noni kuchaytirish yoki muayyan jihatni yanada kattaroq ko'rsatish usulidir.

-In soccer, players often blow out of proportion their injuries- Uning odati shupashshadan fil yasaydi-²ushbu ibora muammoning asl hajmidan kattalashtirilganini ko'rsatish bilan, o'sha kishining o'rtiqcha tashvish yoki bezovtalik qilishga moyilligini obrazli tarzda ifodalaydi. Tinglovchi esa ishbu odatning kulgili yoki mantiqsiz bo'lib ko'rinishini his qiladi.

Muloqotda idiomalar va iboralarning ahamiyati:

Idiomalar asosan so'z bo'yligini oshiradi, muloqotga kirishish jarayonini tezlashtiradi hamda tilimizni yanada jozibali qilishga yordam beradi. So'zlovchi kundalik hayotda idiomalardan foydalanar ekan, o'z fikrlarini yanada kengaytirib, his tuyg'ularini yanada boyroq va ta'sirchanroq qilib tinglovchiga yetkazadi. Masalan, biz "**Over the moon**" iborasini qo'llasak, bizning **juda xursand yoki hayajonda** ekanligimizni anglatadi. Bu oddiygina "happy" so'zidan ko'ra, ko'proq hissiy ma'no beradi.

XULOSA...Agarda biz iboralarni ma'nosini to'g'ri tushunib, o'rinli joyda foydalana olsakgina, ular muloqotni yanada ifodali, mazmunli va madaniy jihatdan boy qilishda muhim rol o'ynaydi. Ular til o'rganish jarayonida o'rganuvchilarga yanada chuqurroq tushunish va tabiiyroq muloqot qilish imkonini beradi. Aks holda, undan noto'g'ri foydalansak, nutqimizning ko'rkini buzib qo'yishimiz mumkin. Shuningdek, ular muloqotda qisqa, ammo mazmunli ifodalarni yaratishga yordam beradi. Idiomalarni o'zlashtirish orqali o'rganuvchilar ingliz tilida erkinroq va boyroq so'zlashuv uslubini shakllantira oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.L.Yusupov. Inglizcha –o'zbekcha iboralar lug'ati. Yangi asr avlodi. – Toshkent. 2014.– 36 b.
2. Michael mc carty. English idio'ms in use. cambridge university press 2010
3. Shamatova. O Nofilalogik fakultet talabalariga idiomalarni o'rgatish xususida. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo'nalishlar: muommolar va yechimlar. Andijon. -2020. -630b.

² Michael mc carty. English idio'ms in use. cambridge university press 2010